

O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi delegatsiyasi Gruziyada

Joriy yilning 18-19-feral kunlari Gruziyaning Tbilisi shahrida TRASEKA loyihasining “Yo'l harakati xavfsizligi II” yakuniy yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi boshlig'i, O'zbekiston Respublikasi IIVning Yo'l harakati xavfsizligi Bosh boshqarmasi boshlig'i va TRASEKAning O'zbekistondagi Milliy kotibi tarkibidagi delegatsiya ishtirok etdi.

Yig'ilishda TRASEKAning Armaniston, Azarbajxon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Tojikiston, Ukraina, Bolgariya, Gruziya va O'zbekiston ishtirokchi-davlatlar delegatsiyalari hamda Yevropa Komissiyasi, BMT, VOZ, xalqaro moliya muassasalari vakillari va TRASEKA loyihasi konsultantlari ishtirok etdi.

Yakuniy yig'ilishning asosiy maqsadi, yuqorida ta'kidlangan TRASEKA loyihasining 2014-2015-yillarda amalga oshirilgan natijalarini muhokama qilish va yo'l transporti hodisalarida qurbanlar sonini qisqartirish uchun TRASEKA davlatlarida yo'l harakati xavfsizligini oshirish masalalariga e'tiborni qaratishdan iborat.

Yig'ilish davomida ishtirokchilar, yo'l harakati xavfsizligi muammolariga taalluqli va ularga yo'l harakati xavfsizligini oshirish bo'yicha imkoniyatlar yaratish kabi dolzARB masalalarni muhokama qildilar.

Shundan so'ng, TRASEKA loyihasining “Yo'l harakati xavfsizligi II” jamoasi hisobotlari taqdim etildi. Loyiha konsultantlari o'z ma'ruzalarida, yo'l harakati xavfsizligini boshqarish tizimini yaratishga hamda yo'llarda qurbanlar va og'ir tan jarohati olganlar sonini kamaytirishga alohida e'tibor qaratdilar.

Ma'ruzalardan so'ng, mintaqalarda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash strategiyasini qabul qilish zarurligi haqida munozaralar bo'lib o'tdi. Munozaralarda asosan tegishli ma'lumotlar bazasini yaratish yo'li bilan yo'l transporti hodisalarini kuzatib borish uchun elektron vositalarni qo'llash zarurligiga e'tibor qaratildi. Konferentsiya ishtirokchilariga o'z mamlakatlarida yo'l harakati xavfsizligining holati haqida so'zlab berishlari uchun imkoniyat yaratildi.

Yakuniy yig'ilish TRASEKA davlatlarida yo'l harakati xavfsizligi muammolarini yana bir bor muhokama etilishiga va har tomonlama imkoniyatlar, foydalilanilgan yangi usullar bilan tanishishga imkon yaratdi.